

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2021 № 4 (15)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent-2021

Falsafa va hayot xalqaro jurnal
Философия и жизнь международный журнал
Philosophy and life international journal

Tahrir kengashi:

Abdildina, R.J. – Qozog’iston FA akademigi, f.f.d., professor

Askarov, T.A. – Qirg’iziston FA akademigi, f.f.d., professor

Bashimov, V.V. – Turkmaniston milliy ta’lim instituti direktori

Werner Bush – dunyo professorlari uyushmasi exs prezidenti DSc, professor (Germaniya)

Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, f.f.d., professor

Morevedge, P. – AQSH dunyo olimlari departamenti raisi, DSc, professor

Nisanbayev, A.N. – Qozog’iston FA akademigi, f.f.d., professor

Skarantino, L.M. – Jahon falsafa jamiyatlari federatsiyasi prezidenti, DSc, professor, (Italiya)

Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya FA “Falsafa” instituti direktori, Rossiya Falsafa Jamiyati prezidenti, f.f.d., professor (Rossiya)

Tursunov, A. – Tojikiston FA akademigi, f.f.d., professor (Tojikiston)

Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy)

Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, f.f.d., (Rossiya)

Muassislar:

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy – tadqiqot markazi O’zbekiston falsafa jamiyati OOO tadqiqot

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasi rayosatining qarori bilan maxsus jurnallar ro’yxatiga kiritildi. 2018-yil 29-dekabrda 260/7 sonli bayonnoma

Ro’yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O’zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.

Bosh muharrir:

Shermuhamedova, N.A., – f.f.d., professor (O’zbekiston)

Bosh muharrir o’rinbosari:

Muhamedova, Z.M., – f.f.d., professor (O’zbekiston)

Mas’ul muharrir:

Safayeva, S.X., – f.f.n., dotsent (O’zbekiston)

Tahrir hay’ati:

Allahyarova, T. – f.f.d., professor (Azarbayjon)

Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog’iston)

Abasov, A. S. – f.f.d., professor (Azarbayjon)

Ahamer, G. – PhD, professor (Avstriya)

B.K. Santosh Kukreja, – DSc, professor (Hindiston)

Bodio Todeush, – s.f.d., professor (Polsha)

Bilalov, M. I., – f.f.d., professor (Rossiya)

Berna, A., – PhD, professor (Turkiya)

Vefa Tashdelen, – f.f.d., professor (Turkiya)

Gabito, T. X. – f.f.d., professor (Qozog’iston)

Guseynov, S. – f.f.d., professor (Azarbayjon)

Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya)

Ivatova, L.M., – s.f.d., professor (Qozog’iston)

Kurmangaliyeva, G.K., – f.f.d., professor (Qozog’iston)

Lazarevich, A.A., – f.f.n., professor (Belorussiya)

Muzaffarov, M. – f.f.d., professor (Tojikiston)

Morevedge, R. – DSc, professor (AQSH)

Naushanbayeva, A., Hakimogli, – PhD filos., professor (Turkiya)

Olatunji Felix. O. – DSc., professor (Nigeriya)

Paxruddinov, Sh. I., – s.f.d., professor (O’zbekiston)

Sadikova, N.N., – f.f.d., professor (Tojikiston)

Saifnazarov, I.S., – f.f.d., professor (O’zbekiston)

Sergeyev, M.Y., – PhD, professor (AQSH)

Telebayev, G.T., – f.f.d. professor (Qozog’iston)

To’rayev, B. O., – f.f.d., professor (O’zbekiston)

Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg’iziston)

Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy)

Shadmonov, Q.B., – f.f.d., professor (O’zbekiston)

Fishler, A. – f.f.d., professor (Fransiya)

Yaxshilikov, J. – f.f.d., professor (O’zbekiston)

Yaskevich, Y.S., – f.f.d., professor (Belorusiya)

Xudayberganov, R.X. – f.f.n., dotsent (O’zbekiston)

Xidirov, M.T. – falsafa doktori (PhD) (O’zbekiston)

Ilmiy kotib:

Mahkamov, U. (O’zbekiston)

Musahhihlar:

Hamdamova, S. (O’zbekiston)

Madiyorova, V. (O’zbekiston)

Saurov, R.R., (O’zbekiston)

Философия и жизнь международный журнал
Falsafa va hayot xalqaro jurnal
Philosophy and life international journal

Редакционный совет:

Абдильдина, Р. Ж. - академик НАН Казахстана, д.ф.н., профессор
Аскарров, Т. А. - академик АН Киргизистана, д.ф.н., профессор
Башимов, В. В. - директор национального института образования Туркменистана
Вернер Буш. - экс президент всемирной ассоциации профессоров, доктор философских наук, профессор, (Германия)
Мамедзаде, И. Р. - д.ф.н., профессор, директор института “Философии и социологии” АН Азербайджана
Мореведж, П. - DSc. профессор, руководитель GSP США
Нысанбаев, А.Н. - академик АН Казахстана, д.ф.н., профессор
Скарантино, Л. М. - президент всемирной федерации философских обществ д.ф.н., профессор (Италия)
Смирнов, А. В. - академик АН России, директор института Философии АН России, президент РФО, д.ф.н., профессор (Россия)
Турсунов, А. - академик АН Таджикистана, д.ф.н., профессор
Цуй Вэйхан - Вице-президент Института философии КАОН, д.ф.н., профессор (Китай)
Чумаков, А. Н. - проф. РАН, д.ф.н., (Россия)

Учредители:

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно исследовательский Центр Имама аль Бухари при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана
ООО tadqiqot

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан введен в список специальных журналов. 2018 год 29 декабрь протокол №260/7

Регистрационное свидетельство

№1175 выдано 27.02.2018 агенством по печати и информации Узбекистана

Главный редактор:

Шермухамедова, Н. А. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель редактора:

Мухамедова, З. М. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ответственный редактор:

Сафаева, С. Х. - к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Редакционная коллегия:

Аллахярова, Т. - д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Андиржанова, Г. А. - д.п.н., профессор (Казахстан)
Абасов, А. - д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Ахамер, Г. - PhD, профессор (Австрия)
В.К.Сантош Кукреджа. - PhD, профессор (Индия)
Бодио Тодеуш. - д.п.н., профессор (Польша)
Билалов, М. И. - д.ф.н., профессор (Россия)
Берна, А. - PhD.- профессор (Турция)
Вефа Ташделен - д.ф.н., профессор (Турция)
Габитов, Т. Х. - д.ф.н., профессор (Казахстан)
Гусейнов, С. -д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Гезалов, А.А. - к.ф.н., профессор (Россия)
Иватова, Л. М. - д.п.н., профессор, (Казахстан)
Курмангалиева, Г. К. - д.ф.н., профессор (Казахстан)
Лазаревич, А. А. - к.ф.н., профессор (Беларусия)
Музаффаров, М. - д.ф.н., профессор (Таджикистан)
Мореведж, Р. – DSc, профессор (США)
Наушабаева, А., Хекимоглы - PhD, профессор (Турция)
Олатунжи Феликс О. – DSc, профессор (Нигерия)
Пахруддинов, Ш.И. - д.п.н., профессор (Узбекистан)
Садикова, Н. Н. - д.ф.н., профессор (Таджикистан)
Саифназаров, И.С. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сергеев, М. Ю. - PhD, профессор (США)
Телебаев, Г.Т. - д.ф.н., профессор (Казахстан)
Тураев, Б.О. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Урманбетова, Ж. К. - д.ф.н., профессор (Киргизистан)
Чжан Байчун - д.ф.н., профессор (Китай)
Шадманов, К.Б. - д.ф.н. профессор (Узбекистан)
Фишлер, А. - д.ф.н., профессор (Франция)
Яхшиликов, Ж. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Яскевич, Я.С. - д.ф.н., профессор (Беларуссия)
Худайберганов, Р.Х. - к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Хидиров, М.Т. - PhD доктор философии (Узбекистан)

Ученый секретарь:

Махкамов, У. (Узбекистан)

Корректоры:

Хамдамова, С. (Узбекистан)

Мадиярова, В. (Узбекистан)

Сауров, Р.Р. (Узбекистан)

Philosophy and life international journal
Falsafa va hayot xalqaro jurnal
Философия и жизнь международный журнал

Editorial Council:

Abdildina, R.J. - academician AS of Kazakhstan, doctor of philos. sciences, professor

Askarov, T.A. - academician AS of Kyrgyzstan, doctor of philos. sciences, professor;

Bashimov B.B. - director of national Institute of education of Turkmenistan

Werner Bush - President of the World Association of Professors, DSc, professor (Germany)

Mamedzade, I.R. - director of Institute "Philosophy and sociology" AS of Azerbaijan doctor of philosophical sciences, professor

Morewedge, P. - Editor-in-Chief; IGDE, DSc, professor USA

Nysanbaev, A.N. - academician AS of Kazakhstan, doctor of philos. sciences, professor

Scarantino, L.M. - President of International Federation of Philosophical societies, professor of philosophy and politics of culture, (Italy)

Smirnov, A.V. - Academician of the Academy of Sciences of Russia, Director of the Institute of Philosophy of the Academy of Sciences of Russia, President RFS, doctor of philos. sciences, professor (Russia)

Tursunov, A. - academician of the ASc of Tajikistan, doctor of philos. sciences, professor

Tsui Weihan - vice-President of the Institute of Philosophy CAAS, doctor of philos. sciences, professor (China)

Chumakov, A.N. - professor RAN doctor of philos. sciences (Russia)

Founders:

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam al Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan OOO tadqiqot

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan entered into the list of special journals. 2018 December 29 Protocol №260 / 7

The registration certificate № 1175 was issued on February 27, 2018 by the Uzbek Agency for Press and Information

Editor-in-Chief

Shermukhamedova, N.A. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Deputy Editor:

Mukhamedova, Z.M. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Managing editor:

Safaeva, S.Kh. - Ph.D. philos., (Uzbekistan)

Editorial team:

Allahyarova, T. - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

Andirjanova, G.A. - doctor of political sciences, professor (Kazakhstan)

Abasob, A. S. - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

Ahamer G. - PhD, professor (Austria)

B.K. Santosh Kukredja, - PhD., professor (India)

Bodio Todeus. - doctor of political sciences, professor (Poland)

Bilalov, M.I. - doctor of philos. sciences, professor (Russiya)

Berna, A. - PhD., professor (Turkey)

Vefa Tashdelen. - doctor of philos. sciences, professor (Turkey)

Gabitov, T.H. - doctor of philos. sciences, professor (Kazakhstan)

Guseynov, S. - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

Gezalov, A.A. - PhD. of philos., associate professor (Russia)

Ivatova, L.M. - doctor of political sciences., professor (Kazakhstan)

Kurmangaliyeva, G.K. - doctor of philos., professor (Kazakhstan)

Lazarevich, A. A. - PhD philos., professor (Belarus)

Morewedge, R. - doctor of philology, professor (USA)

Muzaffarov, M. - doctor of philos sciences, professor (Tajikistan)

Naushanbaeva, A., Hakimogli. - PhD. philos., professor (Turkey)

Olatunji, Felix.O. - DSc, professor (Nigeriya)

Pakhruddinov, Sh.I. - doctor of political sciences, professor (Uzbekistan)

Sadikova, N.N. - doctor of philos. sciences, professor (Tajikistan)

Saifnazarov, I.S. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Sergeev, M.Yu. - PhD, philos., professor (USA)

Telebaev, G.T. - doctor of philos. sciences, professor (Kazakhstan)

Turaev, B.O. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Urmanbetova, J.K. - doctor of philos. sciences, professor (Kyrgyzstan)

Zhang Baichun - doctor of philos. sciences, professor (China)

Shadmanov, Q. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Fischler, A. - doctor of philos. sciences, professor (France)

Yaxshilikov, J. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Yaskevich, Ya.S. - doctor of philos. sciences, professor (Belarus)

Xudayberganov, R.X. - PhD. philos., (Uzbekistan)

Xidirov, M.T. - PhD. philos., (Uzbekistan)

Scientific Secretary:

Mahkhamov, U. (Uzbekistan)

Correctors:

Hamdamova, S. (Uzbekistan)

Madiyorova, V. (Uzbekistan)

Saurov, R.R. (Uzbekistan)

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Mavlonov Jo'rabek Yorqul o'g'li

Saylov tizimini takomillashtirishda siyosiy kommunikatsiya texnologiyalarning roli.....9-18

Kurbaniyazova Raushana Kurbanbaevna

O'zbek mentaliteti shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik jihatlari.....19-35

Mo'minov Jasurbek Mamirjonovich

Davlat va jamiyat boshqaruv tizimida siyosiy kommunikatsiyalardan samarali foydalanish masalalari.....36-49

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Xidirov Mustafu Toyirqulovich

Falsafiy ta'limni rivojlantirishning asosiy omillari.....50-56

Xudayberganov Ravshonbek Xudaybergan o'g'li

Til va kommunikatsiya mutanosibligining ontologik xususiyatlari.....57-64

Tulyayev Avazbek Ilhomovich

“Virtual olam” tushunchasini o'rganishga doir falsafiy yondashuvlar.....65-71

TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI

Agzamxodjayeva Shaxnoza Saitmatmobovna

XX asrda Navoiyshunoslik: Navoiy so'fiylik ta'limotining falsafiy me'rosi to'g'risida.....72-80

Umurzakov Uyg'un Abdutalipovich

Mafkuraviy tarbiya asosida fuqarolar madaniyatini rivojlantirish istiqbollari va muammolari.....81-90

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Djalilov Baxtiyor Xidayevich

Ma'naviy tarbiya rivojlantirishga nisbatan innovatsion yondashuv.....91-96

Kamilov Davron Zafarovich

Sekulyarlashuv jarayonining musulmon jamiyatlariga ta`siri.....97-107

Yilmaz Jankalo'g'lu

Diniy ta'lim falsafasiga oid ba'zi mulohazalar.....108-115

Raxmonov Azizbek Abdullajonovich

Sport estetikasi: sport va san'at uyg'unligi.....116-124

СОДЕРЖАНИЕ

ФИЛОСОФИЯ ПОЛИТИКИ И ОБЩЕСТВА

Мавланов Журабек Ёркул угли

Роль технологий политических коммуникаций в совершенствовании избирательной системы.....9-18

Курбаниязова Раушана Курбанбаевна

Социально-экономические и этнические аспекты формирования узбекского менталитета.....19-35

Муминов Жасурбек Мамиржонович

Вопросы эффективного использования политических коммуникаций в системе государственного и общественного управления.....36-49

ФИЛОСОФИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ

Хидиров Мустафо Тойиркулович

Основные факторы развития философского образования.....50-56

Худайберганов Равшонбек Худайберган угли

Онтологические аспекты соотношения языка и общения.....57-64

Туляев Авазбек Илхомович

Философские подходы к изучению понятия «Виртуальный мир».....65-71

ФИЛОСОФИЯ ИСТОРИИ И ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ

Агзамходжаева Шахноза Саитматмобовна

Навоиведение XX века о философском наследии и суфизме Навои.....72-80

Умурзаков Уйгун Абдугалипович

Перспективы и проблемы развития гражданской культуры на основе идеологического воспитания.....81-90

МИРОВАЯ КУЛЬТУРА И РЕЛИГИОЗНЫЕ ТРАДИЦИИ

Джалилов Бахтиёр Хидаевич

Инновационный подход к развитию духовного воспитания.....91-96

Камилов Даврон Зафарович

Влияние процесса секуляризации на мусульманские сообщества.....97-107

Йилмаз Жанкаугли

Некоторые оценки философии религиозного образования.....108-115

Рахмонов Азизбек Абдуллажонович

Спортивная эстетика: соединение спорта и искусства.....116-124

CONTENTS

PHILOSOPHY OF POLITICS AND SOCIETY

Mavlonov Jorabek Yorqul oqli

The role of political communication technologies in improving the electoral system.....9-18

Kurbaniyazova Raushana Kurbanbaevna

Socio-economic and ethnic aspects of the formation of the uzbek mentality.....19-35

Mo'minov Jasurbek Mamirjonovich

Issues of the effective use of political communications in the system of state and public administration.....36-49

PHILOSOPHY OF EDUCATION AND SCIENCE

Khidirov Mustafo Toyirkulovich

Main factors of the development of philosophical education.....50-56

Khudayberganov Ravshonbek Khudaybergan oqli

Ontological aspects of the correlation between language and communication.....57-64

Tulyayev Avazbek Ilhomovich

Philosophical approaches to the study of the concept “virtual world”.....65-71

PHILOSOPHY OF HISTORY AND HISTORY OF PHILOSOPHY

Agzamxodjayeva Shaxnoza Saitmatmobovna

The importance of socio-philosophical views of Alisher Navoi in the XXI century.....72-80

Umurzakov Uygun Abdutalipovich

Prospects and problems of the development of civil culture on the basis of ideological education.....81-90

WORLD CULTURE AND RELIGIOUS TRADITIONS

Djalilov Bakhtiyor Khidayevich

Innovative approach to the development of spiritual education.....91-96

Kamilov Davron Zafarovich

The effect of the process of secularization on muslim communities.....97-107

Yilmaz Jankalo'g'lu

Some evaluations on the philosophy of religious education.....108-115

Raxmonov Azizbek Abdullajonovich

Sports aesthetics: a connection of sport and art.....116-124

**TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI /
ФИЛОСОФИЯ ИСТОРИИ И ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ /
PHILOSOPHY OF HISTORY AND HISTORY OF PHILOSOPHY**

UDK: 316.75(575.1)



DOI: 10.5281/zenodo.6504610

Umurzakov Uyg'un Abdotalipovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi o'qituvchisi,
O'zMU mustaqil izlanuvchi
E-mail: Afm7787@mail.ru
(O'zbekistan, Toshkent)

**MAFKURAVIY TARBIYA ASOSIDA FUQAROLAR MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda globallashuv ta'sirida dunyoni yaxlit makon ekanligi, undagi muammolar butun insoniyatni muammosi ekanligi, jahon xalqlari manfaatlarining mushtarakligi, mafkuraviy poligonlar, kishilarning siyosiy faolligini oshishida jamiyatda tarqalayotgan axborotlarning roli, tarixiy tajribalarni hisobga olgan holda hozirda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotiga xavf tug'diruvchi axborot xuruji muammosini bartaraf etish, kishilar ongida mafkuraviy immunitetni shakllanishi, Prezidentimiz tomonidan milliy mafkurakontseptsiyasi uchun yangi g'oyalar, printsiplar vakategoriylarni ishlab chiqish jarayoniga dolzarb vazifa sifatida e'tibor qaratilishi, fuqarolar ongiga milliy mafkura ta'sirini yanada kuchaytirish masalasi uni jamiyatimiz misolidagi piramidani yuqorisidan quyiga qarab emas, balki quyidan yuqoriga qarab targ'ib etish kerakligini ko'rsatishi, mafkuralardagi ideal obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar, fuqarolar siyosiy madaniyatini rivojlanishida mafkuralardagi dushman obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar, mafkuraviy amaliyotda mafkuraning aks ta'siri, "g'oyaviy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash" tamoyili hamda milliy mafkura strukturasi takomillashtirish va shu orqali jamiyat siyosiy madaniyatini yuksaltirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: globallashuv, insoniyat, xalqlar, mafkuraviy poligonlar, siyosiy faollik, jamiyat, axborotlar, ijtimoiy-siyosiy, havf, axborot xuruji, mafkuraviy immunitet, milliy mafkura, g'oya, kontseptsiya, printsipl, kategoriya, fuqaro, ideal obrazlar, dushman obrazlar.

ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. В данной статье объясняется, что сегодня мир представляет собой глобальное место, находящееся под влиянием глобализации, его проблемы — это проблемы всего человечества, общие интересы народов мира, идеологические свалки, роль политической активности людей в развитии, преодоление проблемы информационного вторжения, формирование идеологического иммунитета в сознании людей, разработка Президентом новых идей, принципов и категорий концепции национальной идеологии в неотложном порядке, необходимость продвигать снизу вверх категории, представляющие идеальные образы в идеологиях, категории, представляющие враждебные образы в идеологиях, в развитии политической культуры граждан. Речь идет об отражении идеологии в идеологической практике, принципе «идейного самовоспитания» и совершенствовании структуры национальной идеологии, что способствует повышению политической культуры общества.

Ключевые слова: глобализация, человечество, народы, идеологические свалки, политическая активность, общество, информация, общественно-политическая, опасность, информационная агрессия, идеологический иммунитет, национальная идеология, идеи, понятия, принципы, категории, враги, образы, идеалы.

PROSPECTS AND PROBLEMS OF THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE ON THE BASIS OF IDEOLOGICAL EDUCATION

Abstract. This article explains that today the world is a global place influenced by globalization, its problems are the problems of all mankind, the common interests of the peoples of the world, ideological dumps, the role of people's political activity in development, overcoming the problem of information intrusion, the formation of ideological immunity in the minds of the people, the development by the President of new ideas, principles and categories of the concept of national ideology in an urgent manner, the need to promote from the bottom up the categories representing ideal images in ideologies, categories representing hostile images in ideologies, in the development of the political culture of citizens. We are talking about the reflection of ideology in ideological practice, the principle of "ideological self-education" and the improvement of the structure of national ideology, which helps to increase the political culture of society.

Keywords: globalization, humanity, nations, ideological dumps, political activity, society, information, socio-political, danger, informational aggression, ideological immunity, national ideology, ideas, concepts, principles, categories, enemies, images, ideals.

KIRISH

Fuqarolarning faol harakati har bir jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi kuch hisoblanadi. Zero, fuqaro bo'lmasa jamiyat bo'lmaganidek, uning faol harakatisiz taraqqiyotni bo'lishi ham mumkin emas.

Jamiyatning bir bo'lagi bo'lgan fuqaroning jamiyatni rivojlantirish borasidagi faoliyati rang-barang bo'lib, ular amaliyotda ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, badiiy va boshqa yo'nalishlarga bo'linadi. Fuqarolar faoliyatida ushbu yo'nalishlar nisbatan xususiylik kasb etadi, ya'ni har bir fuqaro o'z qiziqishi, intilishi va qobiliyatidan kelib chiqqan holda bu yo'nalishlardagi sohalarning biri bilan shug'ullanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jamiyatda fuqarolar uchun nisbatan xususiy yo'nalishlar ichida barchaning birdek anglashi, bilishi va faoliyat yuritishi lozim bo'lgan yo'nalish ham borki, bu yo'nalish jamiyatning siyosiy yo'nalishidir.

Siyosiy yo'nalishdagi faoliyatning barcha uchun daxldorligi davlat boshqaruvida bevosita ko'pchilikni ishtirokini ta'minlovchi hamda jamiyatda demokratiyaning asosiy belgilaridan biri bo'lgan ozchilikni ko'pchilikka bo'ysunishligi tamoyilini qaror toptiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi hozirda kuchli davlat negizida kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga intilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Bu yo'l – erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zamini”, deya ta'kidlaydi [Мирзиёев Ш.М. 2016. 8-6].

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ham fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lini ko'rsatib, “Siyosiy madaniyatni yuksaltirish kerak. Odamlar hokimiyat qarorlar qanday qabul qilishini, ularning ijrosi qanday nazorat qilinayotganini bilishlari, bu qarorlarni tayyorlash va amalga oshirishda faol ishtirok etishlari zarur” ligini e'tirof etadi [Каримов И.А. 2000. - 17-6].

Ijtimoiy-siyosiy hayotda ulkan islohotlarni boshlagan, yangi rivojlanish yo'lidan borayotgan har bir davlat va jamiyat islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlashda fuqarolar siyosiy faolligini oliy darajasi bo'lgan siyosiy

madaniyatga katta ehtiyoj sezadi. O'zbekiston ham hozirda ulkan islohotlar amalga oshirayotgan va ayni vaqtda uning muvaffaqiyatini ta'minlashda fuqarolardagi siyosiy madaniyatga katta ehtiyoj sezayotgan davlatdir.

Tarixning barcha davrlarda jamiyatda biror-bir yangilik - islohotni amalga oshirish mushkul ish bo'lgan. Chunki, har bir jamiyatda ongli ravishda tushunib yangilikni qabul qiluvchi va uni qo'llab-quvvatlovchi kishilar qatorida islohotlar zaruriyatini tushunmaydigan, konservativ kishilar toifasi ham mavjud bo'lganki, bunday kuchlar o'zlarini loqaydliklari, tushunmasliklari hamda siyosiy tomondan bilimsizliklari tufayli doimo jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'lib kelgan. Mazkur kuchlar jamiyat taraqqiyotiga to'g'onoq bo'lishda tarixan tashqi kuchlar bilan tez til topishgan ularni manfaati uchun jamiyat manfaatlarini toptagan.

Ma'lumki, kishilarning siyosiy faolligini oshishida jamiyatda tarqalayotgan axborotlarning roli beqiyos. Axborot ta'sirida kishilardagi siyosiy faoliyat "olomon harakati" ko'rinishida ham yoki sog'lom siyosiy e'tiqod negizidagi siyosiy madaniyat ko'rinishida ham vujudga kelishi mumkin. Axborot xuruji ta'sirida vujudga keladigan, kishilarning siyosiy hissiyotiga asoslanuvchi "olomon harakati", albatta, har bir davlatda ko'ngilsiz oqibatlarini keltirib chiqarishi tabiiy. Shuning uchun ham tarixdagi aksariyat davlatlar o'z siyosatlarida axborotning bu yovuz kuchiga asosiy e'tiborni qaratib kelgan. Masalan, sobiq SSSR mafkuraviy kurashda raqiblarning axborot xurujidan ximoyalalanish uchun mamlakatni dunyo axborot manbaidan izolyatsiyalash siyosatini olib borgan. Ta'kidlash lozimki, hozirda bunday yo'l jahon davlatlari tomonidan ham, O'zbekiston tomonidan ham qoralangan. Chunki, mamlakatni dunyo axborot manbaidan izolyatsiyalash siyosati o'ta xato siyosat bo'lib, jamiyatni jahondan uzilib qolishiga, mamlakatni turg'unlashuviga hamda inson huquqlarini paymol etilishiga olib keluvchi yo'lligi ma'lumdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot davrida jamiyatdagi keng ko'lamdagi islohotlar qatorida mafkura sohasi ham tubdan isloh etila boshlandi. Chunki, mustaqillikning dastlabki yillarida qo'lga kiritilgan tajribalar "mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar" ligini ko'rsatdi [Каримов И.А., 1998. - 4-б].

Mana shunday sabablar tufayli bugungi davr ushbu soha olimlari oldiga qator vazifalar qo'yimoqda. Bu murakkab vazifani bajarish ishi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oldi. Ular: "1) Ideologik kontseptsiyalarni ilmiy asoslangan eng muhim printsiplar vamilliy manfaatlar negizidashakllantirish; 2) Ommaviy ongga ta'sir ko'rsatish hamda jamiyat siyosiy madaniyati bilan aloqani ta'minlash; 3) Mafkuraviy ishni, targ'ibotni uyushtirish, mafkuraviy

ishni takomillashtirish mehanizmlarini rivojlantirish” va boshqalardir [Tojiev. H., 1999. - 53-bet].

Mazkur vazifalar ichida milliy mafkura kontseptsiyasi uchun g'oyalar, printsiplar va kategoriyalarni ishlab chiqish asosiy va katta ilmiy salohiyat talab qiladigan vazifa sifatida belgilandi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z fikrini bildirib: “Men milliy mafkura xususida bosh qotirayotgan olimlarimiz, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlariga yer yuzida insoniyat va davlatchilikni paydo bo'lganligidan buyon shakllangan jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini teran o'rganish, kishilik tarixining yuksalish va tanazzul davrlarini, taraqqiyotni ana shu inqirozlardan omon saqlab qoluvchi ijtimoiy – ma'naviy omillarni har tomonlama tadqiq etgan holda biror xulosaga kelishini tavsiya etgan bo'lur edim”, -deya ta'kidladi [Karimov I.A., 1998. - 13-bet].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev esa, mafkura masalasida barcha sohalar qatori ushbu sohaga ham innovatsiyalarni joriy etish lozimligini uqtirgan xolda, “bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”, deya izohlaydi [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018. – 20 b].

Albatta, Prezidentimiz tomonidan milliy mafkura kontseptsiyasi uchun yangi g'oyalar, printsiplar va kategoriyalarni ishlab chiqish jarayonigadolzarb vazifa sifatida e'tibor qaratilishi bejiz emas. Chunki, milliy mafkurani yangilashning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud bo'lib, u ob'ektiv tomondan, ilmiy qonun-qoidalarga, jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy muhitga, davlatimizning imkoniyatlari va o'zbek xalqning milliy mentalitetiga nechog'lik mos bo'lishiga bog'liq bo'lsa, sub'ektiv tomondan esa, u ishlab chiquvchilarning ilmiy salohiyati, iste'dodi va ijodiy ilhomiga bog'liq hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, bir mafkuraning nazariy jihatdan yaralishi va uni amaliyotga kirib borish jarayoni tadrijiy jarayondir. Bu jarayon amaliyotga kirib borayotgan har bir mafkuradan doimo davr bilan hamnafas bo'lib, yangi o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'z-o'zini qurishni hamda tarixiy va amaliyotdagi mafkuralar tajribasidan ijodiy foydalanib, kelajakni o'zida yorqin aks ettirishni talab etadi. Bugungi kunda endigina jamiyat hayotiga kirib borayotgan milliy mafkurani shakllanish jarayonida ham, albatta, bu talablarni hisobga olish lozim bo'ladi. Mana shundagina milliy mafkura mafkuraviy amaliyotda yakkahokimlik va mafkuraviy niglizmdan uzoqlashadi hamda mukammal strukturaga ega bo'lgan holda ijtimoiy hayotda fuqarolar siyosiy madaniyatini

rivojlantirish va jamiyat barqarorligini ta'minlashda asosiy rolni o'ynaydi.

Ta'kidlash lozimki, mafkuraviy amaliyotda milliy mafkuraga siyosiy yo'nalganlik va ahamiyatlilik xosdir. Zero, gap millat barqarorligi va ravnaqiga tahdid soladigan mafkuralarga qarshi kurash haqida borganda milliy mafkura tom ma'noda siyosiy sifat kasb etadi. U bu jarayonda xuddi siyosiy mafkuralar singari jamiyat axliga “do'st” ham, “dushman” ham borligini ko'rsatishi kerak bo'ladi [Tojiev H., 1999. - 39-bet]. Milliy mafkuraning mazkur funktsiyasi bo'lmasa jamiyatda siyosiy madaniyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Mafkuraviy amaliyotda milliy mafkura bu vazifani mafkuraviy kategoriyalar orqali amalga oshiradi. Mafkuraviy kategoriyalar mafkuraviy kontseptsianing asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularsiz har qanday yetakchi mafkura ham amaliyotda muvaffaqiyat qozona olmaydi. Mafkuraviy kategoriyalarning ob'ekti inson ongi va qalbi hisoblanib, ular kishilarga muayyan mafkuraviy kontseptsyani taklif etadi va singdiradi.

Ma'lumki, hayotda mutloq yaxshi yoki mutloq yomon narsa va hodisa mavjud bo'lmaydi. Har bir narsa va hodisaning ikkinchi tomoni ham mavjud bo'lishi barchamizga ayondir. Lekin mafkuraviy amaliyotda borliqdagi narsa – hodisalarni ifodalovchi mafkuraviy kategoriyalar mohiyatiga ikkilanish va mavhumlik xos emas. Ular o'z mohiyatidan kelib chiqqan holda predmet va voqelikni barcha belgi-xossalarini nisbiylashtirgan holda amaliyotda konkret tasvirlaydi.

Mana shunday murakkab mohiyatiga ko'ra mafkuraviy kategoriyalar ideal obrazlarni ifodalovchi va dushman obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar ko'rinishda tasniflanadi. Mafkuralardagi ideal obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar fuqaro shaxsida va jamiyatda vujudga kelishi kerak bo'lgan voqeilikni mafkuraviy maqsaddan kelib chiqqan holda yorqin “bo'yoqlar” bilan ifodalaydi. Bu kategoriyalar hissiy va ratsional tomondan, avvalo, fuqarolarga ta'sir ko'rsatib, ularga o'zida vujudga kelishi kerak bo'lgan “men”ni hamda mamlakatda barpo etilishi zarur bo'lgan jamiyatning ideal “qiyofa”sini tushuntirib beradi. Ideal obrazlarni ifodalovchi kategoriyalarda ilgari surilgan obrazlar dastlab nomoddiy va mavhum bo'lsada, keyinchalik bu kategoriyalarning amaliyotdagi izchil va uzluksiz harakati tufayli ular konkret va moddiy voqeilikka aylanadi. Bu turdagi kategoriyalar fuqarolarga hissiy va ratsional tomondan ta'sir etishi natijasida ularda shaxsiy va ijtimoiy maqsadni shakllantiradi. Fuqarolarda bu ikki maqsadni shakllanishi esa, ularni siyosiy faol fuqaroga aylanishiga olib keladi. Siyosiy faollik amaliy tomondan fuqaro siyosiy madaniyatni rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Fuqarolar siyosiy madaniyatini rivojlanishida mafkuralardagi dushman obrazlarni ifodalovchi kategoriyalarning ham o'z o'rnini bor. Bu kategoriyalar mafkuraviy amaliyotda ideal obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar bilan nomutanosiblikda va o'zaro kombinatsiyalashgan holda do'st va dushman

dixotomiyasini amalga oshiradi. Mafkuralardagi ideal obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar kishilarni bunyodkorlikka (yetuk inson bo'lishga va har tomonlama mukammal jamiyatni barpo etishga) chorlasa, dushman obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar esa, kishilarni vayronkorlik (insonni tubanlashtiruvchi, jamiyatni rivojlanishiga to'siq bo'luvchi kuchlar mavjudligi)dan ogohlantiradi hamda ularga qarshi kurash yo'llarini ko'rsatadi. Dushman obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar o'zida, asosan, ikki vayronkor kuchni: birinchisi, dushman shaxsni, ikkinchisi esa, dushman makon (jamiyat, davlat, tuzum va turli guruhlar)ni ifoda etadi. Amaliyotda bu turdagi kategoriyalar ta'siri natijasida kishilar shaxsiy va ijtimoiy maqsadga to'g'onoq bo'ladigan kuchlarni anglaydilar hamda ulardan o'z maqsadlarini ximoyalash uchun harakatga keladilar. Ijtimoiy-siyosiy hayotda shaxsiy va jamiyat maqsadni ximoya qilish ko'nikmasiga egalik fuqaroni siyosiy madaniyatlilik darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgi hisoblanadi.

Har bir mafkura tarkibida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan mazkur kategoriyalar mafkuraviy amaliyotda doimo birga bir-birini to'ldirib, o'zaro qonuniy bog'langan va kombinatsiyalashgan holda harakatlanadi. Mafkura tarkibida ularning birini bo'lmasligi mafkura strukturasi mukammallikni buzadi. Strukturaviy kamchilikka ega bo'lgan mafkura ijtimoiy-siyosiy hayotda yetarlicha natija bermaydi.

Ta'kidlash lozimki, milliy mafkura strukturasi ham hozirda mana shunday jiddiy kamchiliklar mavjud. Aniqroq qilib aytganda, yuqorida tilga olingan turdagi kategoriyalarning aksariyati milliy mafkura tarkibida uchramaydi, mavjudlari esa hozirda ham, aniq funktsiya bo'yicha kombinatsiyalashtirilmagan va sistemaga solinmagan.

Ma'lumki, milliy mafkura strukturasi bunday kamchilik amaliyotda faqat mafkuraviy kamchilik bo'lib qolmaydi. Bu kamchilik tufayli, jamiyatning mafkura ta'sir etadigan barcha sohalarida o'ziga xos muammolar kelib chiqadi. Bu holat, albatta, jamiyatning siyosiy sohasiga ham ta'sir etadi, ya'ni milliy mafkura tarkibidagi kamchilik tufayli, kishilar siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida do'st va dushman dixotomiyasi ko'rsatish mumkin bo'lmay qoladi. Siyosiy sohada bu vazifani milliy mafkura tomonidan bajarilmasligi esa, jamiyat uchun butunlay yot, begona mafkuralarni harakati uchun katta imkoniyatni vujudga keltiradi.

Fuqarolar siyosiy madaniyatini rivojlantirish muammosi mafkura sohasida katta ishlarni amalga oshirishni, ya'ni milliy mafkura strukturasi yanada mukammallashtirish vazifasini kun tartibiga qo'yadi. Bu vazifa hozirda milliy mafkura tarkibi uchun zarur bo'lgan barcha turdagi kategoriyalar va tamoyillarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Albatta, mafkuraviy amaliyotda bu vazifalarni xal etish oson bo'lmaydi. Zero, bu jarayon bizdan birinchi navbatda, tarixiy va bugungi amaliyotdagi barcha (bunyodkor va vayronkor) mafkuralar strukturasi mukammal o'rganishni, ayniqsa, ulardagi kategoriyalarni vujudga kelishi va tuzilishi qonuniyatlarini tadqiq etishni talab etadi.

Tarixiy va bugungi amaliyotdagi mafkuralarning tarkibiy tuzilishini o'rganish orqali biz ularning mafkuraviy amaliyotda qo'llagan tajribaviy bilimlariga ega bo'lamiz. Mafkuraviy amaliyotda ushbu tajriba va bilimlardan ijodiy yondashgan holda foydalanish milliy mafkurani strukturaviy jihatdan mukammal va o'ta raqobatdosh mafkura bo'lib shakllanishiga olib keladi. Strukturaviy jihatdan mukammallikka erisha borgan sari milliy mafkuraning jamiyatni barqaror rivojlantirishdagi ta'sir ko'lami ham kengayib boradi. Albatta, bu holat u orqali jamiyatda fuqarolar siyosiy madaniyatini rivojlantirish muammosini xalq etishda katta imkoniyatni vujudga keltiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, milliy mafkuraning strukturaviy jihatdan mukammallashuv jarayoni unda faqat kategoriyalarni shakllantirish bilangina xalq bo'lmaydi. Bu jarayon milliy mafkura tarkibi uchun zarur bo'lgan bir qator tamoyillarni ham mafkuraviy amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Tarixdan ma'lumki, amaliyotdagi aksariyat mafkuralar o'zlaridagi g'oyalarni kishilar ongiga singdirishda aylanma yo'llardan foydalanishgan. Ya'ni, ular muayyan g'oyani to'g'ridan-to'g'ri inson ongiga yo'naltirmasdan uni turli obrazlar, vosita va usullar orqali singdirgan. Tarixiy mafkuralarning bu tajribasi mafkuraviy amaliyotda “g'oya demasdan turib g'oyani singdirish” tamoyilini vujudga keltirgan [Tohiriyon A. va boshqalar. 2015. –48 b].

“G'oya demasdan turib g'oyani singdirish” tamoyili mafkuraviy amaliyotdagi eng qadimiy qoidalardan biri bo'lib, u qariyb insoniyat tarixidagi ilk mafkuralar bilan tengdoshdir. Mazkur tamoyil bugungi kunda ham barcha mafkuralarda mavjud bo'lib, mafkuraviy amaliyotda u mafkuraviy nazariya va amaliyot sirini keng xalq ommasidan saqlashda asosiy rolni o'ynab kelmoqda.

Hozirda bu tamoyil ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z-o'zini tarbiyalash tamoyili ko'rinishida ma'lumdir. Unga ko'ra o'z-o'zini tarbiyalash – bu “ichki tuyg'ular yordamida milliy qadriyatlarni, inson hayotidagi yutuq va muammolarni, tajribalarni o'rganish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ya'ni mustaqil rivojlanish jarayonidir. Ta'lim-tarbiya jarayoni qanday tashkil etilmasin, o'z-o'zini tarbiyalashsiz uni amalga oshirib bo'lmaydi” [Djuraev R.X. Turg'unov S.T., 2006. - 256-bet].

Fandagi bu tamoyil mafkuraviy amaliyotdagi mafkuralar tarkibida boshqa bir ko'rinishda, ya'ni “g'oyaviy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash” tamoyili ko'rinishida mavjuddir.

Bu tamoyil bo'yicha har bir mafkura o'z ob'ekti bo'lgan insonga mafkuraviy amaliyot orqali hayotning barcha ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rsatib uning mafkuraviy manzarasini namoyon etadi. O'z maqsadidan kelib chiqqan holda borliqning mafkuraviy manzarasi namoyon etish orqali mafkura insonni bu jarayonda mustaqil fikrlashga, hayotda o'z ichki ta'siriga ya'ni, muayyan pozitsiyaga ega bo'lishiga undaydi. Insonda shakllanadigan “bunday pozitsiyaga

muayyan ijtimoiy harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki e'tiqodni, jamiyat rivojiga salbiy ta'sir etuvchi hodisalarga nisbatan murosasizlikni, bunday hodisalarga qarshi kurashga tayyorgarlikni, o'zi bajarayotgan ish uchun yuksak ijtimoiy mas'uliyatni, jamoa manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlarini deb bilishni, egalik hissining rivojlanganligini kiritish mumkin” [Odilqoriev X.T. Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik, 2008. - 332-333-betlar].

Aytish mumkinki, hozirda jamiyatimizdagi mafkuraviy amaliyot jarayoniga aynan “g'oya demasdan turib g'oyani singdirish” va “g'oyaviy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash” tamoyillari kiritilsa “Milliy mafkura vositasida elu yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi” [Karimov I.A., 1998. -15-bet].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi o'ta murakkab davrda mustamlakachi kuchlarni yangicha kurash uslubi bo'lgan mafkuraviy poligonlar tobora kuchayib bormoqda. Ular aksar hollarda yangi asrdagi axborot xurujiga tayyor bo'lmagan, fuqarolarida yetarlicha siyosiy madaniyat va mafkuraviy immunitet shakllanmagan davlatlar hayotida og'ir oqibatlarini keltirib chiqarmoqda.

Mafkuraviy xuruj real bo'lgan mana shunday sharoitda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning axborot olish va uni tarqatish borasidagi konstitutsiyaviy huquqini ta'minlagan holda, ularning ongida yetarlicha siyosiy madaniyat va mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo'lidan bormoqda. Jamiyatda bunga erishish uchun esa, birinchidan, kishilarning siyosiy ongida buzg'unchilikni keltirib chiqaruvchi kuchlarning qarashlari va g'oyalarini bartaraf etish, ikkinchidan, fuqarolarda sog'lom siyosiy e'tiqod negizida siyosiy madaniyatni shakllantirish asosiy vazifa qilib belgilangan.

Bu ikki vazifani to'laligicha xal etish jarayoni hozirda jamiyatimiz mafkurasi bo'lgan milliy mafkurani strukturaviy jihatdan yanada mukammallashtirishni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ushbu hodisalarni bartaraf etish muammosi jamiyatda quyidagi vazifalarni bajarish orqali hal etilishi kutilmoqda. Ular: birinchidan, mafkuraviy amaliyotda milliy mafkura strukturasi uchun zarur bo'lgan, fuqarolarga “do'st” va “dushman” dixotomiyasini ko'rsatib beruvchi kategoriyalarni ishlab chiqish bo'lsa; ikkinchidan, jamiyatda fuqarolar siyosiy madaniyatini rivojlantirish uchun olib borilayotgan mafkuraviy amaliyot jarayoniga “g'oya demasdan turib g'oyani singdirish” va “g'oyaviy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash” tamoyillarni kiritish vazifasidir.

Milliy mafkura strukturasi takomillashtirish va shu orqali jamiyat siyosiy madaniyatini yuksaltirishga mo'ljallangan ushbu vazifalar hozirda tarixiy va bugungi amaliyotdagi mafkuralarning tarkibiy tuzilishini ularni amaliyotda

qo'llagan usul va vositalarini to'liq o'rganish va tahlil etish lozimligini ko'rsatmoqda. Jamiyatda mafkuraviy ishni bu shaklda tashkil etilishi:

birinchidan, milliy mafkurani strukturaviy jihatdan takomillashish jarayonida tarixiy va bugungi kundagi mafkuralarning amaliyotda erishgan yutuqlaridan ijodiy foydalanish imkoniyati vujudga keltiradi;

ikkinchidan, milliy mafkurani shakllanish jarayonida tarixiy vorisiylik saqlanib qoladi. Bu hol milliy mafkura amaliyotda tarixiy va bugungi amaliyotdagi mafkuralarni xatosini takrorlamaslik imkoniyatini vujudga keltiradi. Bu harakatlarning natijasida milliy mafkura strukturaviy jihatdan mukammal va raqobatdosh mafkura sifatida shakllanib boradi.

Milliy mafkura strukturaviy jihatdan mukammallashuvi uning jamiyat hayotiga yanada chuqurroq kirib borishini ta'minlaydi. Bu jarayonda milliy mafkura yot mafkuralar uchun hech qanday imkoniyat qoldirmagan holda fuqarolar hayotida o'ziga xos bilish, baholash va harakat mezonini bajaradi.

BIBLIOGRAFIYA

Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.—Тошкент. Ўзбекистон. 2016. 8-б.

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2000. - 17-бет.

Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни — халқ, миллатни — миллат қилишга хизмат этсин. —Тошкент. “Ўзбекистон”, 1998. - 4-бет.

Тожиев. Ҳ. Миллий мафкуранинг назарий ва методологик масалалари. —Тошкент. “Меҳнат”, 1999. - 53-бет.

Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни — халқ, миллатни — миллат қилишга хизмат этсин. —Тошкент. “Ўзбекистон”, 1998. - 13-бет.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. (2017 йил 22 декабрь). —Тошкент.Ўзбекистон, 2018. — 20 б.

Тожиев Ҳ. Миллий мафкуранинг назарий ва методологик масалалари. — Тошкент. “Меҳнат”, 1999. - 39-бет.

Тоҳириён А. ва бошқалар. Миллий ғоя ва маънавият асослари. — Тошкент, : Navro'z. 2015. —48 б.

Джураев Р.Х. Турғунов С.Т. Таълим менежменти. -Тошкент. “Vorish-Nashriyot”, 2006. - 256-бет.

Одилқориев Х.Т. Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. -Тошкент. “Ўқитувчи”, 2008. - 332-333-бетлар.

Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни — халқ, миллатни — миллат қилишга хизмат этсин. —Тошкент. “Ўзбекистон”, 1998. -15-бет.

**FALSAFA VA HAYOT//
ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ//
PHILOSOPHY AND LIFE**

Tahririyat manzili	Адрес редакции	Editors Address
100085, O‘zbekiston Toshkent, Sergeli tumani, Mehrigiyo ko‘chasi -6	100085, Узбекистан, Ташкент Сергелинский район, Улица Мехригиё- 6	100085, Uzbekistan Tashkent Sergeli, Mehrigiyo street-6

Veb-sayt: <http://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2018/03/01/03pdf>
www.tadqiqot.uz ; E-mail: falsafa-h@mail.ru, Shermuhamedova_n@mail.ru
Telefon: (+99890) 358-62-70

MUASSISLAR:	УЧРЕДИТЕЛИ:	FOUNDERS:
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati OOO tadqiqot	Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Международный научно- исследовательский центр Имом ал Бухори при кабинете Министров Республики Узбекистан Философское общество Узбекистана OOO tadqiqot	The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek International Research Center Imom al Bukhori at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan OOO tadqiqot

Tahririyat sifatli maqolalarni tanlash huquqini saqlagan holda taqdim etilayotgan materiallarning aniqligiga javob bermaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Редакция оставляет за собой право отбора качественных статей и не несет ответственности за достоверность информации в представленных материалах.

The editors reserve the right to select quality articles and is not responsible for the reliability of the information in the submissions.

Подписано для сайта 08.02.2022. Заказ №14.
Тошкент шаҳри